

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISHNING XORIY TAJRIBASI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10791404>

Sodiqova Aziza Jovli qizi.

Annotatsiya.

Mazkur maqolaning asosiy mazmuni nogironligi bo'lgan shaxslarni hayot faoliyatiga doir cheklovlarni yengib o'tish, ularni kompensatsiya qilish uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga shart – sharoitlarni ta'minlash bo'yicha xorij tajribasi hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora- tadbirlar tizimi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar

Ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, rehabilitatsiya, Shved modeli, Yaponiya, Buyuk Britaniyada ijtimoiy himoya tizimi, integratsiya, to'siqsiz muhit, protez-ortopediya, resurslar xonasi, nogironlar huquqlari to'g'ridagi konvensiya, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi.

Kirish. “Nogironlikni shaxsiy muammo sifatida emas, balki ijtimoiy muammo sifatida ko'rish kerak” (Сергей Миронов)

Ma'lumki, nogironligi bo'lgan shaxslarga munosabat jamiyatning madaniyatligini baholashning ma'lum bir mezoni hisoblanadi. Nogironlik aholining ijtimoiy nochorligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, ijtimoiy yetuklikni, iqtisodiy barqarorlikni, jamiyatning ma'naviy yaxlitligini aks ettiradi va nogironlik va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishini tavsiflaydi. Nogironligi bor shaxslarni muammolari nafaqat ularning shaxsiy manfaatlariga, balki ma'lum darajada oilasiga ham ta'sir etishini, aholining turmush darajasi va boshqa ijtimoiy omillarga bog'liqligini inobatga olsak, ularning yechimi ma'lum darajada milliy, tor idoraviy tekislik emas va ko'p jihatdan davlat ijtimoiy siyosatining yuzini belgilaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, ularning turmush darajasini yaxshilash maqsadida “Rossiya Federatsiyasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida” gi qonun qabul qilingan (1995-yil 24-noyabr, 181-son). - FZ) Ushbu qonun 6 bob 35 ta moddadan iborat [1]. Mazkur qonunning 10-

moddasida Nogironligi bo'lgan shaxslarning reabilitatsiya qilishning individual dasturi haqida bo'lib, reabilitatsiya xizmatlariga terapiya ya'ni nogironlikni keltirib chiqaradigan kasalliklarni davolashda dori-darmonlar bilan ta'minlash, protez - ortopediya, eshitish apparatlari bilan ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish, kasbga qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan iborat. Mamlakatda har yili 30 mingga yaqin bola tug'ma irsiy kasalliklar bilan dunyoga keladi, ularning 70-75 foizi nogironlardir[2]. Bolalardagi nogironlik hayot faoliyatining sezilarli cheklanishini anglatadi. Reabilitatsiya qilishning texnik vositalariga quyidagilar kiradi:

- Tayanch harakatlanish uchun maxsus tutqichlar;
- Qo'lda boshqariladigan akkumulyatorli nogironlik aravachalari;
- Mikroprotessorli boshqaruvga qulay yuqori funksional protezlar;
- Ortopedik poyabzal va maxsus kiyimlar;
- Nutq chiqishi bilan tibbiy termometrlar va tonometrlar;
- Brayl displey, ekran o'qish dasturi;
- Yorug'lik va tebranishga mo'ljallangan maxsus signalizatsiya, ovoz hosil qiluvchi qurilmalar

-Yordamchi elektron orientatsiya vositalari (masofani aniqlash, obyekt toifalarini, odamlarning yuzlarini aniqlash) kabi bir qancha ijimoiy xizmatlardan iborat.

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida nogironligi bor bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning quyidagi tendentsiyalari haqida xulosa chiqarishimiz mumkin: Nogironligi bor bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish turar-joy muassasalarida ham, oilaviy sharoitlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Ayni paytda oilada ana shunday farzandlar tarbiyasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Reabilitatsiya tizimi hayotning barcha sohalarini qamrab olishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy va kasbiy yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu nogironligi bor bolalarda mustaqil hayot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kam emas. Eng muhimlaridan biri nogironligi bor bolalarning yetarli darajada ta'lim olishini ta'minlashdir. Bunda Rossiya Federatsiyasining nogironligi bor bolalar bilan ijtimoiy ish sohasidagi qonunchiligida mustahkamlangan kompleks ta'lim inklyuziv ta'lim alohida rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review)

Rossiya Federatsiyasida nogironligi bo'lgan shaxslar Oliy ta'lim sohasidagi mavjud nogironligi bo'lgan shaxslardagi ta'lim olishidagi mavzularni o'zlashtirishdagi muammolarini Yarskaya Smirnova, Valentina Nikolaevna, Zaitsev Dmitriy Viktorovich o'rganishgan[3]. Germaniya, Frantsiya va AQShda

ko'zi o'z shaxslarni o'quv jarayonida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiylashtirish bo'yicha inklyuziv ta'lim xususiyatlarini Chvanova.M.S., Dubrovina.O.V., o'rganishgan. Yaponiyada nogironligi bor shaxslarni ish bilan ta'minlashning hozirgi tendentsiyalaridagi farqlarni Dronishinets Nikolay Pavlovich, Filatova Irina Aleksandrovnani ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkun. Rossiya Federatsiyasining nogironligi bor bolalar bilan ijtimoiy ish sohasi mavjud bo'lib ijtimoiy himoyaga muhtoj, taqdiri og'riqli bo'lgan nogironligi bor bolalar, yetim bolalar, ota ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishdagi asosiy maqsad va vazifalarini Pugachev Aleksandr Sergeevich aniqlagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Shuningdek, biz ushbu maqolada turli ko'pgina xorijiy davlatlarning ijtimoiy himoyasi tizimi bilan tanishib chiqamiz. Skandaviya mamlakatlariga kiruvchi Shvetsiya davlatidagi ijtimoiy himoya tizimini ko'rib chiqamiz. Shvetsiyaning maqsadi nogironligi bor shaxslarning jamiyatda boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etishidir. Shvetsiyaning nogironlik bo'yicha milliy strategiyasi BMT ning "Nogironlar huquqlari to'g'ridagi konvensiya" ga asoslanadi [4].

Shvetsiya ijtimoiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi Shvetsiya farovonlik davlatining asosiy elementi bu ijtimoiy himoyadir. Shvetsiya ijtimoiy modelining asosiy prinsipi uning universalligi ya'ni aholining barcha qatlamlarini qamrab olishidir. Bunda ijtimoiy himoya tizimi bevosita ijtimoiy ta'minot tizimi bilan bog'liq. Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda barcha fuqarolar teng ravishda ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, ishtirok etishidan iborat bo'lgan birdamlik tamoyiliga asoslanadi. Shved modelining shakllanishi 1946 - yilda eski pensiya sug'urtasi tizimi asosan byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan yangisi bilan almashtirildi. Dastlab, yangi pensiya tizimi faqat keksa yoshdagi nafaqahorlarni qamrab olgan bo'lsa, keyin asta-sekin nogironlar va bevalar uchun kengaytirildi. Shvetsiyada ijtimoiy ta'minot ya'ni pensiya tizimi 2 ta komponentni o'z ichiga oladi. Birinchisi, sug'urtalangan shaxslarning sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladigan pensiya sug'urtasi ham badallar, ham to'lovlar daromadga qarab belgilanadi va individual ravishda hisoblab chiqiladi.

Pensiya sug'urtasining ikkinchi komponenti - nogironlik pensiyasi davlat tomonidan moliyalashtirildi, to'lovlar miqdori nogironlik bo'yicha hodimning daromadiga ham, ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi. Qoidaga ko'ra, ushbu pensiya 67 yoshdan oshgan, yashash uchun mablag'ga ega bo'lmagan shaxslarga to'lanadi. Shuningdek, Buyuk Britaniya Yevropada nogironligi bo'lgan odamlarning eng yuqori foiziga ega va yuqori oylik nogironlik nafaqasi bo'yicha yetakchilar

ro'yxatida 6- o'rinni egallaydi. Buyuk Britaniyada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun eng yaxshi qo'shimcha imtiyozlar mavjud. Xususan Milliy sog'liqni saqlash xizmatiga ega yagona davlatlardan biri hisoblanib nogironlik bilan bog'liq har qanday davolanish ko'pincha bepul va Yevropaning qolgan qismiga nisbatan arzonligini ko'rishimiz mumkin. Britaniyadagi nogironlarni jamiyat tomonidan mutlaqo har tomonlama imtiyozli guruh deb atash mumkin. Bu yerda hatto pul yordami "nogironlik nafaqasi" deb nomlanmaydi, balki nafis tarzda - "Shaxsiy mustaqillik uchun to'lovlar" - deya nomlanadi [5].

Buyuk Britaniyada bugungi kunda 10 millionga yaqin nogironlar bor (bu butun mamlakat aholisining oltidan bir qismi) va davlat ularga to'liq hayot bo'lmasa ham, yashash uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etgan. 1944-yildan buyon bu yerda nogironlarni kamsitish to'g'risidagi qonun kuchga kirdi, u nogironlarga nisbatan jamiyat zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi.

Endilikda ish beruvchi ishga qabul qilish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish joyini moslashtirish, o'qitish va malakasini oshirish, shuningdek, martaba ko'tarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi shart. Davlat xizmatlari va korxonalar nogironlarning keng aholi uchun tovarlar, ob'ektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart. Nogironlarga xizmat ko'rsatishdan bosh tortish yoki past darajadagi xizmatlarni taklif qilish taqiqlanadi. Buyuk Britaniyada Mehnat va pensiyalar departamenti qarovchilarga nafaqa va nogironlik bo'yicha nafaqalarni, jumladan, quyidagilarni boshqaradi:

✓ Qarovchining nafaqasi – haftasiga kamida 35 soat xizmat ko'rsatadigan qarovchilar uchun qo'shimcha imtiyozlar.

✓ Shaxsiy mustaqillik uchun to'lov va nogironlik bo'yicha yashash uchun nafaqa - surunkali jismoniy yoki ruhiy kasalligi yoki nogironligi bo'lgan odamlar uchun qo'shimcha xarajatlar uchun mablag'lar.

✓ Davomat uchun nafaqa – 66 yoshdan oshgan aqliy yoki jismoniy nogironligi bo'lgan odamlar uchun qo'shimcha parvarish xarajatlari bilan qo'llab-quvvatlash bilan amaliy yordam ko'rsatiladi[6].

Tahlil va natijalar (Analysis and results) Yaponiya juda yuqori turmush darajasiga ega rivojlangan davlatdir. Yaponiya nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitishning chuqur tarixiga ega bo'lgan mamlakat. Ammo bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhitni tashkil etishda namuna sifatida olishimiz mumkin. 2002- yilda Yaponiya ta'lim tizimida o'qituvchilarning say- harakatlari bilan nogironligi bo'lgan bolalarda hayotiylik va ijtimoiy mehnat mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlarni amalga oshirish bo'yicha bolalar uchun ko'plab pragmatik yondashuv dasturlari ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich va o'rta maktablarda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tahsil oladi. Nogiron bolalar "Resurslar xonasi" deb ataladigan joyda mutaxassislardan maslahat olishlari mumkin. Qoida tariqasida bular (autizmli, eshitish, nutq va ko'rishning turli xil buzilishlari, hissiy buzilishlari) bo'lgan bolalardir. Ba'zilar uchun repetitorlar individual yordam ko'rsatish uchun taqdim etiladi. Bolalar uchun kasallik tarixi, psixologik va ijtimoiy tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda individual ta'lim rejalari ishlab chiqiladi va sinfda qulay mikroiklim yaratiladi[7]. Yaponiyada nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi va ularning barcha ehtiyojlari uchun yechimlar mavjud. Misol uchun, Yaponiyadagi barcha jamoat transporti nogironlar uchun mavjud. Avtobuslarda yig'ma panduslar o'rnatilgan, taksi vagonlarida esa eshiklar avtomatik ravishda ochiladi va bu nafaqat imkoniyati cheklanganlar, balki barcha fuqarolar uchun ham qulaydir. Bundan tashqari, bugungi kunda taksilar nogironlar aravachasiga o'tirishni osonlashtiradigan maxsus yuklardan foydalanadi, ammo Yaponiyaning mashhur avtomobil kompaniyasi Toyota bu usulni unchalik qulay emas deb hisoblaydi, shuning uchun u endi aravachaga chiqishga imkon beradigan chiqish rampasi bo'lgan taksini ishlab chiqmoqda. Odam aravachadan bir muddat turishga majbur bo'lmasligi uchun mashinaga to'g'ridan to'g'ri kirishi mumkin. Shuningdek, qonunchilik darajasida nogironlarga yordam berishga qaratilgan har qanday faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash belgilanadi. Masalan, har bir nogironlik aravachasiga ijtimoiy yordamchi ajratilgan bo'lib, uning mehnati davlat mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Yaponiyada nogironlarga faol yordam ko'rsatish siyosati 20-asrning 70-yillaridan beri olib borilmoqda, ammo so'nggi 20 yil ichida qulay muhitni shakllantirish eng katta rivojlanishni oldi. Shu vaqt ichida muhim o'zgarishlar ro'y berdi: jamoat transportida, shahar ko'chalarida va xonadonlarda qulay muhit to'liq yaratildi, qonunchilik bazasi nogironlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda yangi shaklga ega bo'ldi. Bundan tashqari, Yaponiyada davlat byudjeti xarajatlarining katta qismi, xususan, sog'liqni saqlashga qaratilgan. Bundan tashqari Polshada nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatda bandligi ular uchun maxsus imtiyozlar nogironlik darajasi va turiga qarab ajratiladi. Nogironligi bor Polsha fuqarosining mehnatda bandligi bo'yicha imtiyozlar nogironligi bo'lgan xodim uchun quyidagi huquqlarga ega. Cheklangan ish vaqti kuniga 8 soat va haftasiga 40 soat (nogironlikning muhim yoki o'rtacha darajasi deb e'tirof etilgan nogironlar uchun mos ravishda 7 soat va 35 soat). Nogironligi bo'lgan shaxs tungi smenada yoki qo'shimcha ish vaqtida ishlamaydi[8].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, barcha rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan munosobatlar ijtimoiy himoya tizimi barcha davlatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqadi. Zamonaviy jamiyatda nogironlik deganda kasallik, nuqson yoki shikastlanish oqibatlarini tufayli hayotiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati buzilgan va shu sababli bu shaxs ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan shaxsning holati tushuniladi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rish masalasi amaliy darajaga qo'yilgan. Mazkur chora- tadbirlarning asosiy maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish va to'siqsiz muhit yaratib erkin harakatlanishi uchun barcha shart - sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi. Bundan tashqari barcha rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga munosobat deyarli bir xil yani moddiy yordam berish, ularni protez- ortopediya texnik vositalar bilan ta'minlash ammo jamiyatni onggi mutlaq o'zgarmas.

Taklif sifatida har bir davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga jiddiy va alohida e'tibor ko'rsatishi va maxsus agentliklarni tashkil etishi va zamonaviy dasturlar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan munosobat yoki ijtimoiy himoyasi tizimi bo'yicha turli xorij davlatlari bilan tanishib chiqdik va ko'rishimiz mumkinki Rossiya bilan Yevropa davlatlari yoki boshqa davlatlar nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qarashlari o'rtasida jiddiy tafovut yo'q.

Barchasida asosiy maqsad va vazifa nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish, integratsiya jarayonini ta'minlashdan iborat. Nogironlarning ijtimoiy moslashuvi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish butun dunyoda, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya, Angliya, Polsha) ustuvor vazifa hisoblanadi. Amerikada deyarli har bir suhbat u yoki bu tarzda sug'urta va pul bilan bog'liq. Amerikaliklar uchun sug'urta nafaqat uning hozirgi muvaffaqiyatining ko'rsatkichi, balki kelajakda u har bir shaxsning yordamsiz qolmasligining kafolatidir. Xorij tajribasidan namuna olgan holda aynan biz ham tibbiy va ijtimoiy sug'urta tizimi barcha uchun shakllantirishimiz lozim. O'z- o'zini sug'urtalash mexanizmi insonni turli krizisli holatlarda, baxtsiz hodisalarda, sog'ligini tiklashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Социальная защита инвалидов в российской федерации федеральный закон №181-ФЗ от 24 ноября 1995 года

2. Миндель А.Я., Степанова О.А. Разные возможности - равные права - общее жизненное пространство: Монография - М.: ТЦ Сфера, 2009 год.
3. Вестник Томского государственного университета Философия. Социология. Политология. 2019. № 51
4. Nogironlar huquqlari to'grisida konvensiya Nyu-York, 13.12.2006 -y
5. Права в случае инвалидности в Великобритании (2017) Пособие на обеспечение личной самостоятельности – как подать заявку.
6. Деменова. А.Защита прав инвалидов в практике Европейского Суда по правам человека и Комитета ООН по правам инвалидов: параллельные пути или точки соприкосновения? // Международные проиосудие. 2016. № 4 (20). С. 84- 98.
7. <https://news.itmo.ru/ru/news/7825/>
8. <https://www.enableme.com.ua/ru/article/l-goty-i-vyplaty-dla-ukraincev-s-invalidnost-u-v-pol-se-10612>